



## THE ROLE OF UZBEKISTAN IN TURKEY'S GEOPOLITICAL STRATEGY IN CENTRAL ASIA

**Sh. M. Murtazayeva**

*Master's student*

*University of World Economy and Diplomacy*

*Tashkent, Uzbekistan*

*E-mail: [shodiya302@gmail.com](mailto:shodiya302@gmail.com)*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Turkey, Uzbekistan, soft power, investment, geopolitics, Organization of Turkic States, sustainable development, capital, strategic partnership, Central Asia, diplomacy.

**Received:** 30.05.25

**Accepted:** 01.06.25

**Published:** 03.06.25

**Abstract:** This article is dedicated to analyzing Turkey's foreign policy and geopolitical interests in Central Asia. In particular, it examines Uzbekistan's role in Turkey's regional strategy, the directions of bilateral cooperation, and the dynamics of relations within the framework of the Organization of Turkic States. Additionally, the study explores the application of soft power in Turkey-Uzbekistan relations and analyzes the key areas of strategic partnership between the two countries.

## TURKIYANING MARKAZIY OSIYODAGI GEOSIYOSIY STRATEGIYASIDA O'ZBEKISTONNING O'RNI

**Sh. M. Murtazayeva**

*Magistratura talabasi*

*Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti*

*Toshkent, O'zbekiston*

*E-mail: [shodiya302@gmail.com](mailto:shodiya302@gmail.com)*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** Turkiya, O'zbekiston, yumshoq kuch, investitsiya, geosiyosat, Turkiy davlatlar tashkiloti, barqaror rivojlanish, sarmoya, strategik hamkorlik, Markaziy Osiyo, diplomatiya.

**Annotatsiya:** Mazkur maqola Turkiyaning Markaziy Osiyodagi tashqi siyosati va geosiyosiy manfaatlarini tahlil qilishga qaratilgan. Xususan, O'zbekistonning Turkiya strategiyasidagi o'rni, ikki tomonlhma hamkorlik yo'nalishlari va Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi munosabatlari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, Turkiya-O'zbekiston aloqalarida yumshoq kuch vositasi hamda hamkorlikning ustuvor yo'nalishlari tahlil

---

qilingan.

## РОЛЬ УЗБЕКИСТАНА В ГЕОПОЛИТИЧЕСКОЙ СТРАТЕГИИ ТУРЦИИ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

**Ш. М. Муртазаева**

*студент магистратуры*

*Университет мировой экономики и дипломатии*

*Ташкент, Узбекистан*

*E-mail: shodiya302@gmail.com*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** Турция, Узбекистан, мягкая сила, инвестиции, геополитика, Организация тюрksких государств, устойчивое развитие, инвестиции, стратегическое сотрудничество, Центральная Азия, дипломатия.

**Аннотация:** Целью данной статьи является анализ внешней политики и геополитических интересов Турции в Центральной Азии. В частности, рассматривается роль Узбекистана в стратегии Турции, направления двустороннего сотрудничества, а также отношения в рамках Организации тюрksких государств. Анализируются инструменты мягкой силы и приоритетные направления сотрудничества в отношениях Турции и Узбекистана.

---

### Kirish

Sovet Ittifoqi parchalanganidan so‘ng, Markaziy Osiyo davlatlari mustaqillikka erishdi va bu mintaqa xalqaro hamjamiyat, ayniqsa, Turkiya Respublikasi uchun yangi strategik imkoniyatlar maydoniga aylandi. Turkiya mustaqil bo‘lgan turkiy tilli davlatlar bilan munosabatlarni faollashtirishga kirishdi va ikki tomonlama hamkorlikni mustahkamlash yo‘lida muhim qadamlar tashlandi. Aynan shu davrda Turkiy davlatlar kengashi tashkil etildi bu kengash Markaziy Osiyo va Turkiya o‘rtasidagi siyosiy, madaniy hamkorlikni mustahkamlovchi muhim platforma sifatida qaraldi. Biroq dastlabki yillarda bu tashkilot kutilgan darajada faol bo‘la olmadi va faqat 2009-yilda Ozarbayjonning Naxchivon shahrida imzolangan Naxchivon bitimi orqali qayta faoliyatini yo‘lga qo‘ydi. O‘zbekiston o‘zining turkiy ildizlariga ega davlat sifatida bu jarayonlardan chetda qolmadi. Biroq 2019-yilgacha turli siyosiy omillar bois Turkiya bilan hamkorlik cheklangan darajada davom etdi. Aynan 2016-yilda Prezident Shavkat Mirziyoyevning hokimiyatga kelishi bilan mamlakat tashqi siyosatida yangilanish kuzatildi. O‘zbekiston Turkiy davlatlar tashkilotiga a’zo bo‘lish orqali mintaqaviy hamkorlikda faol ishtirok etishni boshladi. Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida 15-oktabr kuni Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida Prezident Mirziyoyev bu a’zolikni “tarixiy va tabiiy” jarayon ekanligini e’tirof etgani O‘zbekistonning bu yo‘nalishga nisbatan strategik yondashuvini ifodalaydi. 2016-yildan keyin Turkiya va O‘zbekiston o‘rtasidagi aloqalar sezilarli

darajada faollashdi. Turkiyaning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy manfaatlari, ayniqsa, O‘zbekiston bilan hamkorlikda namoyon bo‘la boshladi. Ushbu maqolada Turkiyaning mintaqadagi strategik yondashuvlari, ayniqsa, O‘zbekistonning bu geosiyosiy jarayondagi o‘rnini tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi — Turkiyaning Markaziy Osiyodagi siyosatini tahlil qilish orqali O‘zbekistonning bu jarayondagi strategik ahamiyatini yoritishdan iborat.

Turkiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan munosabatlari nafaqat geosiyosiy manfaatlarga asoslangan, balki chuqur tarixiy birdamlik, madaniy yaqinlik va umumiy til-urug‘ ildizlari bilan ham mustahkamlangan. Ayniqsa, Turkiya uchun turkiy tilli davlatlar bilan aloqalarni rivojlantirishda Turkiy Davlatlar Tashkiloti (TDT) muhim strategik platforma bo‘lib xizmat qilmoqda. 2009-yilda Naxchivon shahrida “Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashini tuzish to‘g‘risidagi Naxchivon bitimi” imzolanishi bu yo‘nalishda tarixiy burilish yasadi. Ushbu bitim asosida mintaqadagi turkiy davlatlar o‘rtasidagi hamkorlik aniq mexanizmlar asosida yo‘lga qo‘yildi. 2011-yildan boshlab har yili o‘tkazilayotgan sammitlar, iqtisodiy forumlar, vazirlar darajasidagi uchrashuvlar orqali tashkilotning institutsional kuchi va a’zo davlatlar o‘rtasidagi aloqalar izchil rivojlanib bormoqda. Turkiya uchun Markaziy Osiyo, ayniqsa O‘zbekiston strategik jihatdan alohida ahamiyatga ega. Buning sababi, O‘zbekiston — Rossiya, Xitoy, Hindiston va G‘arb davlatlari manfaatlari to‘qnashuvchi geosiyosiy maydon hisoblanadi. Shu sababli Turkiya ushbu davlat bilan hamkorlikni chuqurlashtirishga intilmoqda. 2016-yilda Prezident Islom Karimov vafotidan so‘ng, Shavkat Mirziyoyev O‘zbekiston Prezidenti etib saylandi va uning tashqi siyosatda olib borgan islohotlari yangi davrni boshlab berdi. Shu davrdan boshlab, O‘zbekiston—Turkiya munosabatlarida sezilarli jonlanish kuzatila boshlandi. Ayniqsa, 2016-yil noyabr oyida Turkiya Prezidenti Rajab Toyyib Erdo‘g‘anning Samarqandga qilgan tashrifi ikki davlat o‘rtasidagi aloqalarning tubdan qayta tiklanishiga zamin yaratdi. Shundan so‘ng ikki davlat rahbarlari o‘rtasidagi siyosiy irodaga asoslangan munosabatlar yangi bosqichga ko‘tarildi. 2017-yil oktabr oyida Prezident Shavkat Mirziyoyevning Turkiyaga ilk rasmiy tashrifi amalga oshirildi. Tashrif arafasida O‘zbekiston Turk fuqarolari uchun viza tartibini soddallashtirish bo‘yicha muhim farmon imzoladi. Bu esa ikki davlat o‘rtasidagi ijtimoiy va madaniy aloqalarni yanada kengaytirishga xizmat qildi.

Bundan tashqari, Anqarada bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi muzokaralar va matbuot anjumanida Prezident Erdo‘g‘an hamda Prezident Mirziyoyev ikki davlat o‘rtasida uzoq yillar davomida sust kechgan siyosiy va iqtisodiy aloqalar endilikda yangi bosqichga ko‘tarilganini ta’kidlab, bu jarayondan har ikki tomon ham mamnun ekanliklarini bildirgan edilar. Prezident Erdo‘g‘an O‘zbekistonni Turkiya uchun Markaziy Osiyodagi eng muhim strategik hamkor deb atadi. Prezident Mirziyoyev esa Turkiyani “katta siyosiy, iqtisodiy va harbiy salohiyatga ega,

xalqaro maydonda yuqori obro‘-e’tiborga ega mamlakat” sifatida e’tirof etdi hamda O‘zbekiston uchun Turkiya ishonchli hamkor ekanligini alohida qayd etdi. Turkiya uchun O‘zbekistonning geostrategik ahamiyati bir necha omillar bilan bog‘liq. Avvalo, O‘zbekiston tarixiy Movarounnahr yuragida joylashgan bo‘lib, asrlar davomida islom sivilizatsiyasining beshigi bo‘lgan. Xususan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo‘qon va Toshkent kabi shaharlar nafaqat mintaqaning, balki butun islom olamining madaniy va ilmiy markazlari sifatida tarixda alohida o‘rin egallaydi. Bugungi kunda ham O‘zbekiston o‘zining boy madaniy merosi, urf-odatlari va jozibador tabiiy resurslari bilan Turkiya uchun “tarixning geografik markazi” sifatida katta strategik ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, O‘zbekistonning Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston hamda Afg‘oniston bilan bevosita chegaradosh bo‘lishi, uni mintaqadagi geosiyosiy barqarorlikni ta’minlashda muhim aktor sifatida shakllantirmoqda. Ushbu holat, ayniqsa Afg‘onistondagi beqarorlik fonida, O‘zbekistonni mintaqaviy xavfsizlikning asosiy ustunlaridan biriga aylantiradi. Demografik nuqtai nazardan qaralganda, O‘zbekiston Markaziy Osiyodagi eng yirik va eng yosh aholiga ega davlatdir. Bu esa mamlakatni yirik iste’mol bozori sifatida ajratib turadi. O‘zbekistonning tabiiy boyliklari — ayniqsa gaz, oltin, uran va mis konlari — nafaqat Turkiya, balki boshqa davlatlar, jumladan, Xitoy, Rossiya va G‘arb mamlakatlarining ham geoijtisodiy manfaatlarini jalb qilmoqda. Shu sababli Prezident Shavkat Mirziyoyev o‘z faoliyatining ilk yillardan boshlab, mamlakatda keng ko‘lamli iqtisodiy islohotlar dasturini amalga oshirishga kirishdi. Ushbu islohotlar doirasida O‘zbekiston iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish maqsadida qator rivojlangan davlatlarga rasmiy tashriflar uyushtirilib, yirik investitsion loyihalar ustida ish olib borilmoqda. “Barqarorlik va o‘zgarishlar” tamoyili nafaqat O‘zbekistonning ichki siyosatida, balki uning tashqi siyosat strategiyasida ham asosiy yo‘nalish sifatida namoyon bo‘lmoqda. Barqaror tashqi siyosat yuritish maqsadida Prezident Shavkat Mirziyoyev an’anaviy o‘ziga tayanishga asoslangan va nisbatan cheklangan tashqi siyosatdan voz kechib, faol iqtisodiy manfaatlarni ilgari surishga asoslangan yangi tashqi siyosat modeliga o‘tdi. Bu model tashqi savdoni rag‘batlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish va O‘zbekistonning global iqtisodiy tizimdagи o‘rnini mustahkamlashga qaratilgan. Bundan tashqari, mintaqadagi eng qiyin va murakkab munosabatlarga ega bo‘lgan qo‘shnilari - Qirg‘iziston va Tojikiston bilan aloqlarda ijobiy siljishlarga erisha boshladi. Prezident Mirziyoyev hukumat tepasiga kelganidan so‘ng, ushbu davlatlar bilan chegaraviy masalalar va suv resurslarini boshqarish kabi muammolar bo‘yicha muzokaralar faollashdi va muhim kelishuvlarga erishildi. Bu esa O‘zbekistonning mintaqaviy barqarorlik va integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan tashqi siyosiy strategiyasining muhim

tarkibiy qismi sifatida ko‘rilmoxda. Xususan, 2025-yil 31-mart kuni Tojikistonning Xo‘jand shahrida bo‘lib o‘tgan uch tomonlama uchrashuv — O‘zbekiston, Tojikiston va Qирг‘изистон uchun tarixiy ahamiyatga ega bo‘lgan muhim voqeа sifatida qayd etildi. Uchrashuv doirasida O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Tojikiston va Qирг‘изистон rahbarlarini barcha chegara masalalarining uzil-kesil hal etilgani hamda Davlat chegaralarini delimitatsiya qilish bo‘yicha shartnomaning imzolanishi bilan samimiyl tabrikldi. Mazkur hujjat va uch mamlakat o‘rtasida Davlat chegaralarining tutash nuqtasi to‘g‘risida imzolangan shartnomaga mintaqada barqarorlik va taraqqiyotni ta‘minlashga, shuningdek butun Markaziy Osiyoning xalqaro maydonagi nufuzini oshirishga xizmat qilishi alohida ta’kidlandi. Bundan tashqari, tantanali ravishda ochilgan “Do‘stlik stelasi” qardosh mamlakatlar o‘rtasidagi mustahkamlanib borayotgan yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro ishonch va strategik sheriklik munosabatlarining yangi ramzi sifatida qayd etildi.

Shuni alohida ta’kidlash joizki, Turkiya uchun Markaziy Osiyoda barqarorlikning ta‘minlanishi, shuningdek, mintaqaviy davlatlar o‘rtasidagi yaxshi qo‘shnichilik va do‘stona munosabatlarning mustahkamlanishi strategik ahamiyatga ega. Bu, ayniqsa, so‘nggi yillarda Turkiyaning Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ikki tomonlama savdo-iqtisodiy aloqalarining izchil rivojlanib borayotgani fonida yaqqol ko‘zga tashlanmoqda. Masalan, 2018-yilda Turkiyaning Markaziy Osiyo davlatlari bilan savdo hajmi 6 milliard AQSh dollarini tashkil etib, bu raqam mamlakatning umumiy tashqi savdosining qariyb 15 foizini tashkil qilgan. 2019-yilda esa bu ko‘rsatkich 7 milliard dollarga yaqinlashgan bo‘lib, ayniqsa Qozog‘iston va O‘zbekiston mintaqadagi eng yirik savdo hamkorlari sifatida ajralib turgan. Bundan tashqari, Turkiyaning mintaqadagi "yumshoq kuch" (soft power) siyosatini ham alohida e’tirof etish zarur. Chunki u boshqa yirik global kuchlardan farqli ravishda, Markaziy Osiyo bilan tarixiy, til va madaniy jihatdan yaqinlikka ega. Ana shu omillar hisobiga Turkiya mintaqada o‘zining madaniy-ta’sir kuchini kengaytirishga erishmoqda va bu bugungi geosiyosiy jarayonlarda muhim vosita bo‘lib xizmat qilmoqda. Turkiya Markaziy Osiyoda umumiy til, tarix va diniy merosga asoslangan yumshoq kuch (soft power) strategiyasini ishlab chiqdi va bu unga mintaqadagi muhim aktorga aylanishiga xizmat qildi. Ayniqsa, 1993-yilda Turkiyaning tashabbusi bilan tashkil etilgan TURKSOY (Turkiy madaniyat xalqaro tashkiloti) turkiy xalqlarning madaniyati, san’ati, tili va tarixiy merosini asrash, uni dunyo miqyosida targ‘ib qilish va kelajak avlodga yetkazish maqsadida faoliyat yuritmoqda. Markaziy Osiyodagi Qozog‘iston, Turkmaniston, Qирг‘изистон va O‘zbekiston kabi davlatlar ushbu loyihada faol ishtirok etmoqda, bu esa turkiy birdamlilikni yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Turkiyaning yumshoq kuch strategiyasining yana bir muhim yo‘nalishi — ta’lim siyosatidir. Minglab Markaziy Osiyolik talabalar Turkiya hukumati

tomonidan taqdim etilgan grantlar asosida bepul ta'lim olish imkoniga ega bo'lmoqda. Bu esa nafaqat mintaqadagi inson kapitalini rivojlantirishga, balki ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlashga ham xizmat qilmoqda. Jumladan, Turkiya Oliy Ta'lim Kengashi statistik ma'lumotlariga ko'ra, 2020–2021 o'quv yili davomida Markaziy Osiyodan Turkiyada tahlil olayotgan talabalar soni quyidagicha bo'lgan: Qozog'istonidan – 4 857 nafar, Qirg'izistonidan – 1 766 nafar, Turkmanistondan – 15 578 nafar, Tojikistondan – 681 nafar, O'zbekistondan – 3 390 nafar.

Turkiya uchun Markaziy Osiyo alohida strategik ahamiyatga ega bo'lib, bu mintaqada ayniqsa O'zbekiston asosiy hamkor sifatida e'tirof etiladi. Bunga sabab, Qozog'iston va Qirg'iziston asosan Rossiya boshchiligidagi integratsion loyihalarda faol ishtirok etayotgan bo'lsa, Turkmaniston o'zining betaraflik siyosati doirasida yakkalanish pozitsiyasida turib, faqat muvozanatli aloqalarni rivojlantirishga harakat qilmoqda. Tojikiston esa Turkiya bilan qadriyatlar va til jihatidagi farqlar tufayli hali ishonchli yoki uzoq muddatli hamkor davlat sifatida qaralmayapti. Shu sababli, yirik iqtisodiy salohiyatga ega Turkiya aynan O'zbekiston bilan mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yishga alohida e'tibor qaratmoqda. O'zbekiston uchun esa Turkiya barqaror sarmoya manbai bo'lib, iqtisodiyotning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, ikki davlat o'rtaсидаги iliq munosabatlar 2016-yil 18-noyabr kuni Turkiya Prezidenti Rajab Toyyib Erdo'g'onning O'zbekistonga tashrifi bilan boshlangan edi. Shundan so'ng, 2017-yil 25-oktabrda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiyaga rasmiy tashrifi davomida ikki davlat rahbarlari tomonidan imzolangan Qo'shma Bayonot ikki tomonlama siyosiy, iqtisodiy va savdo aloqalarini yangi bosqichga olib chiqdi. O'zbekistonning Turkiyaga eksportida ayniqsa qishloq xo'jaligi mahsulotlari muhim o'rinn tutadi. Jumladan, 2021-yilda Turkiyaga umumiyligi eksport hajmi 1,6 milliard AQSh dollarini tashkil etgan bo'lib, uning 2 foizi yoki 25,2 million dollari qishloq xo'jaligi mahsulotlariga to'g'ri kelgan. Bugungi kunga kelib, O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan turkiyalik investorlar soni yildan yilga ortib bormoqda. Ayniqsa, ularning sarmoyalari qurilish, yengil sanoat (ayniqsa tekstil), restoran biznesi va boshqa sohalarda sezilarli darajada o'sib bormoqda. O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2024-yil 1-aprel holatiga ko'ra xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat yuritayotgan korxonalar soni bo'yicha Turkiya 1 886 ta korxona bilan Rossiya va Xitoydan keyin uchinchi o'rinni egallagan. Bu esa Turkiya va O'zbekiston o'rtaсидаги munosabatlarning yanada mustahkamlanib borayotganidan dalolat beradi. Jumladan, 2024-yil 6-iyun kuni Anqara shahrida O'zbekiston–Turkiya oliy darajadagi strategik hamkorlik kengashining uchinchi yig'ilishi bo'lib o'tdi. Unda Prezident Shavkat Mirziyoyev Strategik hamkorlik kengashi ikki davlat uchun naqadar muhim ekanini, u o'zaro hamkorlikni yanada

chuqurlashtirish uchun mustahkam zamin yaratishini alohida ta'kidladi. Ayniqsa, siyosiy muloqot, parlamentlararo aloqalar va madaniy-gumanitar almashinuvlar jadal rivojlanayotgani, shuningdek, so'nggi yillarda savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik sezilarli darajada kuchaygani e'tirof etildi. Turkiya va O'zbekiston o'rtaida haftasiga 90 ta aviaqatnov amalga oshirilayotgani, shuningdek, Turkiyadan O'zbekistonga kelayotgan turistlar soni uch barobarga oshgani mamlakatimiz uchun alohida ahamiyatga ega ekani qayd etildi. Bundan tashqari, Turkiyaning yetakchi kompaniyalari — "Cengiz Holding", "Aksa Energy", "Çalık Holding", "Akay İnşaat", "Anadolu Group", "Özgüven", "Eczacıbaşı Holding" kabi korxonalar tomonidan O'zbekistonda 100 dan ortiq loyiha muvaffaqiyatli amalga oshirilgani ikki tomonlama ishonchning yuksak darajada ekanini ko'rsatadi. Muzokaralar chog'ida Istanbul shahrida O'zbekistonning savdo vakolatxonasini ochish zarurligi ham alohida qayd etildi. Shuningdek, Turkiyaning qishloq va suv xo'jaligi, sog'liqni saqlash sohasini raqamlashtirish, shuningdek, tibbiyat klasterlarini tashkil etishdagi ilg'or tajribasi O'zbekiston uchun muhim ekani ta'kidlandi. Hamkorlikning yana bir muhim yo'nalishi — bu ikki davlatning transport-logistika salohiyatini oshirish va O'rta yo'lak (Middle Corridor) imkoniyatlaridan samarali foydalanish masalasi bo'ldi.

### Xulosa

Umuman olganda, Turkiyaning Markaziy Osiyodagi geosiyosiy strategiyasida O'zbekistonning o'rni beqiyosdir. So'nggi yillarda O'zbekiston va Turkiya o'rtaisdagi ikki tomonlama munosabatlar sezilarli darajada mustahkamlanib, izchil rivojlanmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida O'zbekistonning ochiq va pragmatik tashqi siyosat olib borayotgani mamlakatda barqarorlikni ta'minlash hamda uning xalqaro maydonidagi ijobiliy imijini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Xususan, Turkiya bilan iqtisodiy, siyosiy, madaniy va ta'lim sohalaridagi hamkorlik ikki davlat o'rtaida yangi davrni boshlab berdi hamda o'zaro ishonchga asoslangan mustahkam aloqalarning shakllanishiga zamin yaratdi. Turkiya O'zbekistonni mintaqadagi asosiy hamkor sifatida ko'rishi, shuningdek o'zining "yumshoq kuch" strategiyasi orqali Markaziy Osiyoda faol yetakchilik pozitsiyasini saqlab qolishga intilishi — kelgusida turkiy davlatlar o'rtaisdagi aloqalarni yanada mustahkamlash va turkiy birdamlikni saqlab qolish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

### REFERENCES

1. 15.10.2019 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitidagi nutqidan <https://president.uz/oz/lists/view/2939>

2. Hamzaoglu, H. (2022). Turkey-Uzbekistan relations: strategic cooperation and partnership. *Uluslararası Toplumsal Bilimler Dergisi*, 6(2), 313-329.
3. Yalinkiliçli, E. (2018). Uzbekistan as a gateway for Turkey's return to Central Asia. *Insight Turkey*, 20(4), 27-43
4. Isabaev, A. (2018, June). Uzbekistan after the Transfer of Power. In OSCE Yearbook 2017 (pp. 91-108). Nomos Verlagsgesellschaft mbH & Co. KG.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati. (2025, mart 31). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xo'jand shahrida uch tomonlama uchrashuvda ishtirok etdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. <https://president.uz/uz/lists/view/8001>
6. Emre, S. A., Iskandarov, O. I., Mahmudov, R. B., & Chernov, D. N. (2021). Does Turkey have a Central Asian Project?. Вестник МГИМО Университета, 14(3), 82-96.
7. Kahveci, H., & Bonnenfant, I. K. (2023). Turkish Foreign Policy Towards Central Asia: An Unfolding of Regionalism and Soft Power. *All Azimuth: A Journal of Foreign Policy and Peace*, 12(2), 195-218.
8. Erdem, A. Y. (2023). Türkiye'S Trade Diplomacy with Turkic States: Azerbaijan, Kazakhstan and Uzbekistan Compared (Doctoral dissertation, Middle East Technical University (Turkey)).
9. Daryo. (2024, May 4). *O'zbekistonda qaysi davlatlarning kapitali ishtirokidagi korxonalar soni ko'p?* Daryo. <https://daryo.uz/2024/05/04/ozbekistonda-qaysi-davlatlarning-kapitali-ishtirokidagi-korxonalar-soni-kop>
10. President.uz. (2024, iyun 6). *O'zbekiston va Turkiya yetakchilari keng qamrovli strategik sheriklikni yana-da kengaytirish muhimligini qayd etdilar.* <https://president.uz/uz/lists/view/7294>